



BADIIY ASARLARDA INTERTEKSTUALLIK TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI

Akbarov Humoyunbek Erاليyevich

O'zDJTU Magistratura bo'limi

1- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20373769>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-may 2026 yil

Ma'qullandi: 23-may 2026 yil

Nashr qilindi: 25-may 2026 yil

KEYWORDS

intertekstuallik, badiiy matn, obrazlilik, konnotativlik, ekspressivlik, vosita, alluziya, epigraf.

ABSTRACT

Ushbu maqolada intertekstuallik, yani biron bir matnning avvaldan mavjud bo'lgan boshqa bir matn bilan ma'no jihatdan o'xshashligi va badiiy asarlarning o'zaro aloqadorligi haqida so'z boradi. Intertekstuallikni olimlar tomonidan o'rganilishi va turlarga ajratilishi haqida fikr yuritilgan.

Badiiy matnning ekspressivligini taminlashda shoir va yozuvchilar ko'chma ma'noli so'zlar, jonlantirish, mubolag'a, o'xshatish kabi trop va uslubiy figuralardan mohirlik bilan foydalanadilar. Shuningdek, matnni chuqurroq tushinishda, obrazlilikini oshirishda intertekstuallik muhim ahamiyatga ega. Intertekstuallik tushunchasi hozirgi paytga qadar adabiyotshunoslar, tilshunoslar, faylasuflar va umumiy qilib aytganda, tekshirish obyekti matn bo'lgan ko'plab soha olimlari tomonidan o'rganilgan va hali ham tatbiq etib kelinmoqda. Intertekstuallik atamasi birinchi bo'lib 1967-yilda fransuz olimasi Juliya Kristeva tomonidan "Baxtin, so'z, dialog va roman" risolasida ilmiy termin sifatida ishlatilgan. Olima intertekstuallik hodisasi asosan ilmiy va badiiy matnda uchrashini ta'kidlab, ko'proq badiiy matnda intertekstuallik tamoyiliga urg'u beradi. Shuningdek, intertekstuallik masalasini M. Baxtin, R.Bart, M.Rifattere, A.I.Gorshkov, I.V.Arnold kabi olimlar tomonidan ham o'rganilgan. A.I.Gorshkov "intertekstuallik"ni tekstlararo aloqalar deb nomlaydi. I.V.Arnold esa muayyan matnda aynan yoki qisman o'zgartirilib, qayta ishlanib kiritilgan boshqa matnlar yoki matn qismlarining mavjudligini "intertekstuallik" deb ataydi.

Badiiy asarlarda intertekstual elementlar birlashib, asarning umumiy mazmunini ifodalash, asarning obrazlilikini kuchaytirish va kitobxonga qo'shimcha ma'lumot berish, yani konnotativlikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Intertekst atamasi matn ichidagi matn ma'nosini anglatib, badiiy matnda bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Intertekstuallik tushunchaning fanga kirib kelishi, uning o'rganilishi haqida o'zbek tilshunoslaridan M.Yo'ldoshevning "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" nomli doktorlik dissertatsiyasida to'liq ma'lumot berilgan [4;104-108]. M.Yo'ldoshevning fikricha, "muayyan badiiy matn tarkibida o'zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir. Har qanday badiiy matn intertekstuallik bo'lishi shart emas, bu yozuvchining badiiy maqsadi, uslubi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Badiiy matnga olib

kiriladigan har qanday boshqa matn yoki uning unsuri asosiy matn mazmuni va lisoniy qurilishi bilan uyg'unlashib, yozuvchining estetik niyati ro'yobi uchun xizmat qiladi". "Intertekstuallik orqali yozuvchi va shoirlar voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabatlarini bildirib, konnotativ ma'noni ifodalaydilar".[7;103] M. Yo'ldashev intertekstuallikning quyidagi turlari ko'rsatib bergan.

1) matnga maqol, matal, diniy rivoyatlardan, o'zga asarlardan bir misrani sarlavha qilib kiritish;

2) matnga o'zga asarlardan parchani epigraf sifatida kiritish;

3) matnga rivoyat, hadis, xalq maqollarini olib kirish;

4) matn ichida she'r va qo'shiq parchalaridan aynan keltirish .

Tilshunos S.Maksumova M.Yo'ldoshev fikrlarini ma'qullaydi hamda intertekstuallik haqida shunday yozadi: "Intertekstuallik orqali yozuvchi va shoirlar voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabatlarini bildirib, konnotativ ma'noni ifodalaydilar".[7;103]

Rus tilshunosi N.A.Fateva intertekstual birliklarni quyidagicha tasniflaydi:[9]

1.Allyuziya

2.Reminissensiya

3.Epigraf

4.Sarlavha

5.Havola (sitata)

6.Aforizmlar

7.Maqol,matal

Yana bir izlanuvchilaridan M. Yuldasheva o'zining "Badiiy matnda intertekstuallik hodisasi va intertekstual elementlar" maqolasida intertekstual birliklarni bir necha turlarga bo'lgan va ular quyigadilar: [6;150]

- Alluziya

- Reminisensiya

- Epigraf

- Oksimoron

- Pretsedent birliklar

- Geminatsiya

- Tag ma'no

- Iboralar

- Maqollar

- Matallar

- Alliteratsiya

- Assonans

- Ko'chirmalar (metafora, metonimiya, ironiya)

- Parafraza

- Anafora

- Epifora

- Iqtibo

- Ellipsis

Shuningdek, ingliz tilshunos olimi R. Miolaning fikricha intertekstning tasnifi murakkab va bahsli masalalardan biri hisoblanadi. R. Miola intertekstuallikning matnda uchrashi, ya'ni

intertekstni yetti turga ajratadi. U bu yetti turni uchta kategoriyaga umumlashtirib o'rgangan. R. Miola o'zining "Intertekstuallikning yetti turi" nomli maqolasida intertekstuallik va uning turlarini haqida quyidagi tasniflarni keltiradi va izohlaydi:[2;48]

1-kategoriya:

- 1.Takror
- 2.Tarjima
- 3.Sitata
- 4.Manba, asos

2-kategoriya:

- 1.Badiiy asardagi an'ana, shakl
- 2.Janrlar

3-kategoriya:

- 1.Paralogik intertekstuallik (allyuziv nomlar, presedent birliklar)

Badiiy adabiyotda intertekstuallik hodisasi asarning mazmunini yanada boyitadi, kitobxon uchun qiziqarlik va mazmundorlikni ta'minlaydi. Intertekstuallik ,yani matnga maqol, matal, diniy rivoyatlardan, o'zga asarlardan bir misrani sarlavha qilib kiritish, yoki intertekstual elementlatga ega bo'lgan uslubiy vositalardan foydalanish badiiy matni ekspressivligini oshirishda va o'quvchining badiiy taassurotlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida fiklari keltirilgan olimlarning intertekstuallik tushunchasi va uning turlari haqidagi izlanishlar va o'rganishlarini tilshunoslik sohasida salmoqli ahamiyatga ega. Intertekstuallikning turlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, olimlarning turlicha yondashuvlari mavjud bo'lib, bizning fikrimizcha tilshunos M. Yo'ldashevning qarashlariga qo'shilamiz. Xulosa qilib aytganda intertekstuallik badiiy asarni tushunish va idrok etishni osonlashtiradi, kitobxonning dunyoqarashini kengaytiradi, tafakkurini rivojlantiradi va asarning ekspressivligini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allen G. Intertextuality. London: Routledge, - 2000.
2. Robert S. Miola, 'On Death and Dying in Chapman's Iliad. Translation as Forgery', International Journal of the Classical Tradition, 3 1996, 48-64.
3. Xomodova M. Intertekst tushunchasi, tadqiqi va turlari. Multidisciplinary Scientific Journal. June, 2023, B. 902-908.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol.fanlari dok.diss. T.,2009 B.127.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Fan,T.- 2008, B.104-108.
6. Yuldasheva M. Badiiy matnda intertekstuallik hodisasi va intertekstual elementlar. Education and innovative research. № 5 2024, B.150-154
7. Maksumova S.Badiiy matnning lingvopragmatik xususiyatlari (Konnotativ aspekt) T.- 2015 B.103
8. Xolbekov M. Matn, intermatn va intermatnlik O 'zbek tili va adabiyoti jurnali 2013-yil, 6-son, B.32.
9. Fateva N.A. Интертекстуальность и её функции в художественном дискурсе Текст. / Н.А. Фатеева // Известия АН. Сер. литературы и языка, 1997. Т. 56.
10. <https://fledu.uz>
11. <https://.linguisticsnet.ork.org>